

**YOSH BOLALARDA O'QISH KO'NIKMALARINI FONIKS (PHONICS)
YONDASHUVI ORQALI RIVOJLANTIRISH: INGLIZ TILINI XORIJIY TIL
SIFATIDA O'RGANUVCHILAR MISOLIDA**

Yulchiyeva Dilfuza Zafarjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yosh bolalarda ingliz tilidagi o'qish ko'nikmalarini fonetik asosli foniks (phonics) metodikasi orqali rivojlantirish imkoniyatlari o'rganiladi. Ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan bolalar uchun foniks savodxonlikni mustahkamlovchi eng samarali yondashuvlardan biridir. Maqolada foniks metodikasining asoslari, darsdagi amaliy yondashuvlar, turli yoshdagi bolalar uchun moslashuv usullari va pedagoglar uchun tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimi sharoitida foniksni qo'llash tajribalari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar : *foniks, o'qish ko'nikmalari, xorijiy til sifatida ingliz tili, boshlang'ich savodxonlik, yosh bolalar, metodika*

Abstract. *This article explores the possibilities of developing English reading skills in young children through the phonics method based on phonetic principles. For children learning English as a foreign language, phonics is considered one of the most effective approaches to fostering early literacy. The paper discusses the theoretical foundations of the phonics methodology, practical strategies used during lessons, adaptation techniques for different age groups, and practical recommendations for educators. Additionally, the article analyzes the implementation and outcomes of phonics instruction within the educational context of Uzbekistan.*

Keywords: *phonics, reading skills, English as a foreign language, early literacy, young learners, methodology*

Kirish

Ingliz tilini o'rganish jarayonida o'qish va yozish ko'nikmalari alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar uchun bu bosqichda savodxonlik asoslarini to'g'ri shakllantirish kelgusidagi til o'zlashtirish jarayoniga kuchli ta'sir qiladi (Ehri, 2005). Foniks – bu so'zlardagi tovushlar (fonemalar) va harflar (grafemalar) o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgatish metodikasi bo'lib, u orqali bolalar so'zlarni tovushlab o'qishni va yozishni o'rganadilar (Johnston & Watson, 2005).

O'zbekiston ta'lim muassasalarida ingliz tili 1-sinfdan boshlab o'qitilishi natijasida foniks metodikasini erta bosqichlardan joriy qilish zarurati ortib bormoqda. Bu maqolada aynan yosh bolalar uchun foniks yondashuvining samaradorligi, real dars tajribalari asosida tahlil qilinadi.

Metodologiya

Ushbu ilmiy maqola sifat jihatdan tahliliy metodga asoslangan bo'lib, quyidagi manbalarga tayaniladi:

- Ilmiy maqolalar, foniks bo'yicha xalqaro tadqiqotlar;
- Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim muassasalarida foniks qo'llanilgan 10 ta dars kuzatuv;
- Tajribali o'qituvchilar bilan olib borilgan suhbatlar va reflektiv yozuvlar;
- Darslarda qo'llanilgan o'yin, qo'shiq, harakatli faoliyatlar asosida tahlil.

Tadqiqotda yosh oralig'i 4–9 yosh bo'lgan o'quvchilar bilan ishlagan o'qituvchilar tajribasiga e'tibor qaratildi. Tadqiqotlar Toshkent shahri va viloyatlaridagi xususiy va davlat bog'chalari, maktablarida o'tkazildi.

Natijalar

1. Foniks darslarining samarasi

Tahlil qilingan darslarda quyidagi ijobiy natijalar aniqlandi:

❖ Tovushni harf bilan bog'lash qobiliyati oshgan: Masalan, /s/ tovushiga mos ravishda "snake" so'zi va "ssss" ovoqli qo'shiq bilan mustahkamlash orqali bolalar o'sha tovushni tez tanib oldilar.

❖ Yangi so'zlarni tovushlab o'qish qobiliyati shakllangan: Masalan, 5 yoshli o'quvchi "c-a-t" so'zini birinchi marta ko'rgan bo'lsa ham, foniks yondashuvi yordamida so'zni o'qiy oldi.

❖ Tovushli harakatlar orqali ishtirok faollashgan: Har bir tovush uchun tanlangan harakat bolalarning e'tiborini jalb qilgan va ularni darsga faol jalb qilgan (masalan, "j-j-jump" uchun sakrash).

2. Multisensor yondashuvning ta'siri

Foniks darslarida qo'llanilgan qo'shiq, rangli kartochkalar, harakatli o'yinlar, magnitli harflar va hikoyalar orqali bola bir vaqtning o'zida ko'rish, eshitish va harakat orqali tovushni qabul qilgan. Bu esa o'zlashtirish jarayonini ancha tezlashtirgan.

Munozara

1. Nima uchun foniks ITXTO bolalar uchun muhim?

Ingliz tilidagi ko'plab so'zlar tovushlar va yozilishi bo'yicha murakkab bo'lishi mumkin. Masalan, "phone" so'zidagi "ph" tovushini /f/ deb o'qilishi foniks yondashuvisiz tushunilishi qiyin (Garton & Pratt, 2009). Foniks bu kabi istisnolarni qoidalar va misollar bilan o'rgatishga yordam beradi.

2. O'zbekiston sharoitida foniksni tatbiq etish muammolari

❖ O'qituvchilarning metodik tayyorgarligi: Ko'plab o'qituvchilar foniks metodikasini chuqur bilmaydi.

❖ Resurslar yetishmasligi: Rangli materiallar, audio-video vositalar, foniksga asoslangan kitoblar yetarli emas.

❖ Tilga xos tovushlardagi farqlar: Masalan, /th/ tovushi o'zbek tilida yo'qligi sababli bolalar uchun aytishda qiyinchilik tug'diradi.

Shunga qaramay, tajribali o'qituvchilar foniks darslarini quyidagicha samarali olib bormoqda:

- ❖ Har bir tovush uchun rangli rasm, qisqa hikoya va harakat yaratish.
- ❖ "Jolly Phonics" metodikasidan foydalanish: bu metod har bir tovushni qo'shiq, rasm, harakat orqali o'rgatadi.
- ❖ "Sound Hunt" o'yini: bolalar xona ichidan berilgan tovush bilan boshlanadigan narsalarni topadilar (masalan, "Find something that starts with /b/").

Xulosa

Yosh bolalarda ingliz tilidagi o'qish ko'nikmalarini shakllantirishda foniks juda samarali vositadir. U bolalarda tovushni tanish, so'zlarni tovushlab o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ayniqsa, ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan o'quvchilar uchun foniks orqali savodxonlikni erta bosqichda rivojlantirish muhimdir.

O'zbekiston sharoitida foniks metodikasini keng joriy etish uchun quyidagilar zarur:

1. O'qituvchilar uchun qisqa kurslar, amaliy seminarlar tashkil etish.
2. Rangli, multimodal resurslar bilan ta'minlash.
3. Boshlang'ich sinf darsliklariga foniks asoslarini integratsiya qilish.

Foniks darslari nafaqat savodxonlikni, balki o'quvchilarning tilga bo'lgan ishonch va qiziqishini ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ehri, L. C. (2005). Learning to read words: Theory, findings, and issues. *Scientific Studies of Reading*, 9(2), 167–188. [https://doi.org/10.1207/s1532799xssr0902_4](https://doi.org/10.1207/s1532799xssr0902_4)
2. Garton, A., & Pratt, C. (2009). *Learning to be literate: The development of spoken and written language*. Wiley-Blackwell.
3. Johnston, R., & Watson, J. (2005). *The effects of synthetic phonics teaching on reading and spelling attainment: A seven year longitudinal study*. Scottish Executive Education Department.
4. National Reading Panel. (2000). *Teaching children to read: An evidence-based assessment of the scientific research literature on reading and its implications for reading instruction*. NICHD.
5. Torgesen, J. K. (2006). Preventing early reading failure. *American Educator*, 30(3), 6–19.